

**“O‘ZKIMYOSANOAT” AKSIYADORLIK JAMIYATI**  
**AKSIYADORLARINING YILLIK UMUMIY YIG‘ILISHI**  
**4-SON BAYONNOMASI**

<b>Yig‘ilish o‘tkazilgan joy:</b>	Toshkent shahri Navoiy ko‘chasi, 38-uy.
<b>Yig‘ilish o‘tkazilgan sana:</b>	28.06.2024-yil.
<b>Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish boshlangan vaqt:</b>	16:00
<b>Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish tugagan vaqt:</b>	17:00
<b>Yig‘ilish boshlangan vaqt:</b>	17:00

Jamiyatning ovoz beruvchi aksiyalariga egalik qiluvchi aksiyadorlar ega bo‘lgan ovozlarning umumiy soni – 2 927 710 704 (ikki milliard to‘qqiz yuz yigirma yetti million yetti yuz o‘n ming yetti yuz to‘rt) dona.

Yig‘ilishda ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlar reyestri shakllantirilgan sana – 2024-yil 24-iyun.

“Qimmatli qog‘ozlar markaziy depozitariysi” AJ tomonidan 2024-yil 24-iyun holatiga shakllantirilgan “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining reyestriga muvofiq jami ovoz beruvchi aksiyalar soni 2 927 710 704 (ikki milliard to‘qqiz yuz yigirma yetti million yetti yuz o‘n ming yetti yuz to‘rt) donani tashkil qiladi.

Aksiyadorlarni ro‘yxatdan o‘tkazish vaqti tugatilganda, umumiy miqdori 2 927 710 704 (ikki milliard to‘qqiz yuz yigirma yetti million yetti yuz o‘n ming yetti yuz to‘rt) dona joylashtirilgan ovoz beruvchi aksiyalar egalarining vakillari ro‘yxatdan o‘tdi, bular:

**1. O‘zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi** (keyingi o‘rinlarda – IMV) nomidan Abdushukurov Jamshid Abdigalipovich - Davlat aktivlarini xususiy lashtirish va transformatsiya qilish departamenti direktori, 1 256 417 557 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya, ovoz beruvchi aksiyalarning 42,91 foizini tashkil etadi, IMVning 2024-yil 20-iyundagi 01/29-2-12953-son ishonchnomasiga asosan ishtirok etmoqda.

**2. O‘zbekiston Respublikasining Tiklanish va taraqqiyot jamg‘armasi** (keyingi o‘rinlarda – TTJ) nomidan Mavlyudov Eldar Xayratdinovich - Investitsiya loyihalarni monitoring qilish boshqarmasi Yoqilg‘i-energetika va kimyo sanoati loyihalarini monitoring qilish bo‘lim boshlig‘i, 1 671 293 147 dona egasining nomi yozilgan hujjatsiz oddiy aksiya, ovoz beruvchi aksiyalarning 57,09 foizini tashkil etadi, TTJning 2024-yil 28-iyundagi SHV-04/08-703-son ishonchnomasiga asosan ishtirok etmoqda.

Bu esa umumiy ovoz beruvchi aksiyalarning 100,0 foizini tashkil etadi va yig‘ilish vakolatli (kvorumga ega) hisoblanadi.

Yig‘ilish raisi J. Mirzamahmudov yig‘ilish ishtirokchilariga kun tartibini o‘qib eshittirdi.

**KUN TARTIBI:**

1. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi sanoq komissiyasi a‘zolari soni va shaxsiy tarkibini tasdiqlash.

2. “O‘zkimyosanoat” AJ aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilishi reglamentini tasdiqlash.

3. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi raisining 2023-yil yakunlari bo‘yicha biznes-reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlarini ko‘rib chiqish.

4. “O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisobotini ko‘rib chiqish.

5. 2023-yil yakunlari bo‘yicha jamiyatda o‘tkazilgan korporativ boshqaruv tizimini mustaqil baholash natijalarini ko‘rib chiqish.

6. “O‘zkimyosanoat” AJning 2022-yil 31-dekabrda yakunlangan yillik moliyaviy hisobotlarni Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga muvofiq (MHXS) auditi bo‘yicha auditorlik xulosasini ko‘rib chiqish.

7. “O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil moliya-xo‘jalik faoliyatini tekshirish natijalari yuzasidan auditorlik xulosasini ko‘rib chiqish.

8. “O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil uchun yillik hisobotini ko‘rib chiqish.

9. “O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil yakuni bo‘yicha olingan sof foydasini taqsimlash, dividend miqdori, uni to‘lash shakli va tartibini belgilash.

10. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvi a‘zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining amal qilish muddatini uzaytirish.

11. “O‘zkimyosanoat” AJning affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlarni ma‘qullash.

Ovoz berish natijalariga ko‘ra aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi **qaror qildi:**

1. Sanoq komissiyasi a‘zolari soni 3 (uch) kishidan iborat quyidagi tarkibda tasdiqlansin:

B. Sultanov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi boshlig‘i o‘rinbosari;

M. Xasanova – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi bosh mutaxassisi;

D. Ziyodov – jamiyatning korporativ munosabatlar boshqarmasi etakchi mutaxassisi.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

2. Aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi reglamenti quyidagi tartibda tasdiqlansin:

- asosiy masalalar bo‘yicha ma‘ruzachilarning chiqishlari uchun – 5 daqiqagacha;

- qo‘shimcha nutq va munozaralar uchun – 5 daqiqagacha;

- ovozlarni hisoblash uchun tanaffus – 10 daqiqa.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

3.1. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruv raisining 2023-yil yakunlari bo‘yicha biznes-reja ko‘rsatkichlarining bajarilishi, shuningdek, jamiyatni rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risidagi hisobotlari tasdiqlansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

3.2. Belgilangan rejaga ko‘ra samaradorlikning yig‘indi ko‘rsatkichi 2023-yil uchun 103,2 foizni tashkil etganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

3.3. “O‘zkimyosanoat” AJ boshqaruvining 2023-yil uchun faoliyati samaradorligi qoniqarli deb hisoblansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

4. “O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisoboti ma‘qullansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

**5.1.** “F-PLUS AUDIT” MChJ auditorlik tashkilotining 2024-yil 18-martdagi xulosasiga asosan 2023-yil yakunlari bo‘yicha “O‘zkimyosanoat” AJ korporativ boshqaruv tizimini baholash natijalariga ko‘ra 992 ball to‘planganligi hamda jamiyatning korporativ boshqaruv tizimi holati “yuqori” bahoga sazovor deb e‘tirof etilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

**5.2.** “O‘zkimyosanoat” AJ kuzatuv kengashi va boshqaruvi “F-plus audit” MChJ auditorlik tashkilotining tavsiyalariga muvofiq korporativ boshqaruv tizimini takomillashtirish bo‘yicha zarur choralarni ko‘rsinlar.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

**6.** “KPMG” xalqaro audtorlik tashkilotining 2024-yil 21-martdagi “O‘zkimyosanoat” AJning 2022-yil 31-dekabrda yakunlangan yillik moliyaviy hisobotlarning Moliyaviy hisobotlar xalqaro standartlariga muvofiq (MHXS) auditorlik xulosasi tasdiqlansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

**7.** “Nazorat-audit” MChJ auditorlik tashkilotining 2024-yil 29-apreldagi “O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yildagi moliyaviy-xo‘jalik faoliyati audit natijalari yuzasidan auditorlik xulosasi tasdiqlansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

**8.** Jamiyatning 2023-yil yakunlari bo‘yicha yillik hisoboti 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

---

**9.1.** “O‘zkimyosanoat” AJning 2023-yil yakuni bo‘yicha olingan 129 203 494 700 so‘m sof foydasi quyidagi tartibda taqsimlansin:

- dividendga (soliqni hisobga olgan holda) – 50 foiz yoki 64 601 747 350,00 so‘m;
- zaxira fondiga – 5 foiz yoki 6 460 174 735,00 so‘m;
- Innovatsion faoliyatni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga – 10 foiz yoki 12 920 349 470,00 so‘m;
- Mehnatni muhofaza qilish jamg‘armasiga – 1 foiz yoki 1 292 034 947,00 so‘m;
- Kimyo sanoati korxonalarini rivojlantirish va qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasiga – 26,5 foiz yoki 34 238 926 095,50 so‘m;

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

**9.2.** “O‘zkimyosanoat” AJ yagona aksiyadorining 2023-yil 7-avgustdagi 13/13-9-son qaroriga muvofiq O‘zbekiston Respublikasi Bosh vazirining 2023 yil 24 apreldagi 03/1-3362-son topshirig‘iga asosan “O‘zkimyosanoat” AJ tomonidan jami 114,0 mlrd so‘m pul mablag‘lari dividend sifatida Davlat budjetiga o‘tkazib berilganligi ma‘qullanib hamda ushbu o‘tkazmalar 2023-yil yakuni bo‘yicha olingan sof foydadan hisoblanadigan dividend, ya‘ni oldindan to‘lov (bo‘nak) sifatida buxgalteriya hisobotida aks ettirilganligi ma‘lumot uchun qabul qilinsin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

10. “O‘zkimyosanoat” AJning quyidagi boshqaruv a‘zolari bilan tuzilgan mehnat shartnomalarining amal qilish muddati belgilangan muddatga qadar uzaytirilsin:

<b>T/r</b>	<b>F.I.O.</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Muxamedjanov Timur Rasulovich	Boshqaruv raisi vazifasini bajaruvchi.
2.	Korjikov Yevgeniy Aleksandrovich	Boshqaruv raisining ishlab chiqarish, mahalliy lashtirish, sanoatda kooperatsiya aloqalarini kengaytirish hamda axborot texnologiyalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, <i>boshqaruv a‘zosi</i> .
3.	To‘xtayev Akobir Xakimovich	Boshqaruv raisining iqtisodiyot va moliya bo‘yicha o‘rinbosari, <i>boshqaruv a‘zosi</i> .
4.	Kurbanov Akbar Djaxangirovich	Boshqaruv raisining investitsiyalar va innovatsiyalar bo‘yicha o‘rinbosari, <i>boshqaruv a‘zosi</i> .
5.	Djordjio Veronezi	Boshqaruv raisining investitsiya masalalari bo‘yicha maslahatchisi, <i>boshqaruv a‘zosi</i> .

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

11. “O‘zkimyosanoat” AJning affillangan shaxs bilan kelgusida jamiyat tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimlar ro‘yxati 3-ilovaga muvofiq ma‘qullansin.

**Ovoz berish natijalari:**

Tarafdor – 2 927 710 704 ovoz yoki 100 %, Qarshi – yo‘q, Betaraf – yo‘q.

Shu bilan aksiyadorlarning yillik umumiy yig‘ilishi o‘z ishini yakunladi va yig‘ilish yopiq deb e‘lon qilindi.

Jamiyat aksiyadorlarining yillik umumiy yig‘ilish bayonnomasi ikki nusxada tuzildi va 2024-yil 8-iyul kuni imzolandi.

**Yig‘ilish raisi**

**J. Mirzamahmudov**

**Yig‘ilish kotibi**

**S. Abdullayev**